

## **Ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi va Tayanch-harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda bosqichli nazorat hamda yakuniy nazorat imtihonlarini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

1. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi va Tayanch-harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasida bitiruvchi sinf o'quvchilari qatnashadi va umumiy o'rta ta'lim maktablarining imtihon materiallaridan foydalanadi. Shuningdek o'quvchilarning imkoniyatini hisobga olgan holda quyidagi tavsiyalarga asoslanadi.

2. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi va Tayanch-harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida yakuniy davlat attestatsiyasida umumta'lim maktablari kabi barcha fanlardan (*jismoniy tarbiya fanidan tashqari*) imtihonlar Respublika Ta'lim markazi tomonidan tayyorlangan tavsiyalari asosida amalga oshiriladi.

3. Ushbu fanlar bo'yicha imtihonlarni tashkil etish va o'tkazish uchun javobgarlik maktab-internat imtihon komissiyasi raisi: maktab-internat direktori yoki direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari zimmasiga yuklatiladi.

4. Imtihon komissiyasi raisi: maktab-internat direktori yoki direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari, a'zolari (imtihon o'tkazilayotgan fan o'qituvchisi, sinf rahbari, imtihon komissiyasi a'zolari) ro'yxati muassasaning ichki buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

5. Yakuniy attestatsiyaga ta'lim jarayonida tayyorgarlik olib boriladi. Imtihonlarni o'tkazish jadvali maktab-internatning pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda 30 kun oldin e'lon qilinadi.

6. Matematika fanidan tuzilgan har bir biletning 3-savoli geometriyaga oid bo'lib, chizmalı va javobi mavhum bo'lgan misol va masalalar imtihon kamissiyasi tomonidan o'quvchilarning imkoniyat darajasini hisobga olgan holda, soddaroq misol va masalaga almashtirilishi mumkin. Shuningdek, fizika va kimyo fanlaridan bajariladigan laboratoriya topshiriqlari o'rniga fan o'qituvchilari tomonidan sodda masala va mashqlar tuziladi.

Yangi tuzilgan savol, masala va mashqlar maktab-internatning aniq fanlar bo'yicha metodbirlashma yig'ilishining qarori bilan tasdiqlanadi va shu asosida o'tkaziladi.